

IJODKORLIKNI SHAXSDA NAMOYON BO'LISHINING ASOSIY SIFATI

Habibullayev Ubaydulloxon

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8385841>

Annotatsiya: Ta'lim-tarbiya orqali yoshlar dunyoqarashini o'stirish va intellektual salohiyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Sababi bugungi kunda intellektual salohiyati yuksak jamiyatlarga yashab qolishi ma'lum bo'lmoqda. Mamlakatimizda ham bo'lajak kadrlarning intellektual salohiyatini oshirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatish va shu orqali iqtisodiy yuksaklikka erishish vazifalari yuzaga chiqmoqda. Buning uchun esa bo'lajak kadrlarda o'qitish jarayonida fundamental bilimlar berish bilan birga, intellektual ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarur.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, iqtisodiy yuksaklik, intellektual salohiyat, xotira, tafakkur

Insonning intellektual imkoniyatlarini ko'satib beruvchi, uning salohiyatini oshiruvchi shakl xotiradir. Xotira insonning bilish faoliyatidagi muhim zanjir bo'lib, u asosida narsa va hodisalar obrazi bir-biri bilan bog'lanadi va yangi bilimlar yaratiladi. Inson xotirasi bosqichma-bosqich, quyidan yuqoriga tomon olingan bilimlar, olib borilgan mashg'ulotlar asosida mustahkamlanadi va boyib boradi. Ba'zi mutafakkirlar fikricha, insoniyatning bugungi tamaddunidagi ulug'vorlik undagi o'ziga xos xususiyat – xotiraning mavjud ekanligidir. Shu bois bo'lajak kadrlarda intellektual ko'nikmalarni yuksaltirishning muhim pedagogik vazifalaridan biri ilm oluvchida mustahkam va kuchli xotirani shakllantirishdir. Chunki kuchli xotira, teran tafakkur va ilm olish istagi unda intellektual ongni yuzaga chiqaradi. Ijtimoiy jihatdan intellektuallik intellektual ehtiyojga bog'liq bo'lib, jamiyatning ilm-fanga ehtiyoji va talabi, ta'lim tizimining rivojlanganlik darajasi, texnika va texnologiyani mavjudligi va talabning individual xususiyatlari kabi omillardan kelib chiqadi.

Insoniyat intellektual madaniyatining mohiyatini anglash uchun uning shakllanish jarayonini ko'rib chiqishi zarur. Har bir ijtimoiy taraqqiyotda jamiyatlar o'ziga xos intellektual salohiyatga ega bo'lgan. Buni biz o'sha jamiyatlardagi tafakkuriy o'zgarishlardan bilishimiz mumkin. Zero, insoniyat tafakkuri asrlar oshgani sayin kengaymoqda. Insoniyat intellektuallashtirish jarayonining asrlar davomida rivojlanishi natijasida intellektual xarakter ham shakllandi. Intellektual xarakter – aqliy qobiliyati, salohiyati, bilimi, tafakkuri, dunyoqarashi yuksalgan inson, olim, mutafakkirning individual hayotiy tamoyillariga ilmiy tamoyillarni ko'chishi va umumiy hayotiy-ilmiy normalarni shakllanishidir. Bunga Suqrot, Aflotun, Nyu'ton, Volter, J.J.Russo, I.Kant, F.Nisshelarni misol keltirish mumkin¹. Bunday vaziyatda har bir jamiyat, xususan, jamiyatimiz ham yoshlarini aqliy qobiliyati va u asosda shakllanadigan ijtimoiy intellektuallik xarakterini doimiy yuksaltirishi zarur.

Tafakkur uslubi talabning o'z individual qobiliyatlaridan o'rin olgan intellektual strategiyalar, usullar, malaka va operatsiyalarning ochiq tizimidir. Tafakkur uslubi bolalikdan tarkib topadi va inson umri davomida tajribaga asoslangan holda rivojlanib boradi. Shuning uchun har bir inson o'z hayotida shakllangan uslub doirasida fikr yuritadi, faqat ijodkor shaxslarga uni mukammallashtirishga, o'zgartirishga, yangicha fikrlashga qodir bo'ladi. Insonlarda tafakkur refleksiyasini shakllantirish ularni yangicha inson, kreativ ijodkorga

¹ Roback A. A. Intelligence and Intellect. The Journal of Philosophy, Vol. 19, No. 12 (Jun. 8, 1922), pp. 325-330.

aylantiradi². Shunday ekan, talabalarni ham ijodkorlikka o'rgatish, mustaqil fikrlash refleksiya-sini shakllantirish, kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot muammosiga oid adabiyotlar tahlili asosida ijodkorlikni shaxsda mustaqil fikrlash sifat-lari namoyon bo'lishining eng asosiy va faol shakli sifatida quyidagi belgilarga ko'ra tasniflash mumkinligi aniqlandi:

- ijod turi (texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, pedagogik, didaktik, kasbiy, aralash);
- ijod darajasi (monoiyod, multiyod, megaiyod); ijod qamrovi (ixtisoslik, mutaxassislik, bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro);
- ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli);
- ijodning shakli (innovatsion, ilmiy-tadqiqotchilik, ta'limiy investitsion, aralash);
- umumiy jihatlariga ko'ra (yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish; prinsipial jihatdan yechimlarni ilgari surish; yangilikni amaliy qo'llash);
- yaratilgan ijod mahsulining ma'nosi va murakkabligiga ko'ra (ratsionalizatorlik taklifi; ixtiro; kashfiyot)³.

Ijodiy faoliyatni tashkil etish, ijodkor shaxsni tarbiyalashni Sh.S.Sharipov psixofiziologik jihatdan bir necha bosqichda amalga oshishini keltirib o'tadi. Bulardan birinchisi havas – ehtiyojlarning eng sodda shakli bo'lib, inson tomonidan ongli boshqariladi. Ikkinchisi, nisbatan yuqoriroq rivojlanish bosqichi bo'lgan xohish ham inson tomonidan ongli boshqarilib, u shaxsning ma'lum buyum yoki hodisaga nisbatan munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uchinchi, eng murakkab bosqich bo'lgan qiziqish – xohish va u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar asosida yuzaga keladi. Qiziqish hayotdagi tashqi ta'sirlar, shaxs faoliyati hamda ta'lim-tarbiya jarayoni ta'sirida shakllanib boradi. Bu holatlar psixologik omillar – diqqat, idrok, tushuncha, xotira, fikrlash, tasavvur, sezgi va iroda hislatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, shaxsning shakllanishida alohida muhim ahamiyat kasb etadi⁴.

Zehnlik, topqirlik, sinchkovlik, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik sifat-lari mustaqil va ijodiy faoliyatni tashkil qilishning asosiy omillari hisoblanadi. Ta'lim jarayonining ushbu asosda tashkil etilishi pedagog va talabalar muloqotini individual va differensial yondashuvga asoslangan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma'naviy, didaktik, texnologik, tashkilotchilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin.

Ma'naviy ijodkorlik – pedagog va talabalar orasida ma'naviy axloqiy sohada yangi sifatli natija beruvchi takrorlanmas o'ziga xos yondashuvga asoslangan faoliyat turi.

Didaktik ijodkorlik – o'quv materialini tanlash, loyihalash hamda talabalar o'zlashtirishining yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishga asoslangan faoliyat turi.

Texnologik ijodkorlik – yuqori natijaga erishish imkonini beruvchi yangi tizimlar, jarayonlar va vaziyatlarni izlash hamda yaratish bilan bog'liq faoliyat turi bo'lib, u pedagog va talabalar faoliyatini butunlay qamrab oluvchi ijodkorlikning eng murakkab turi hisoblanadi. Ushbu

² Conrad, Clifton F. Teaching Intellectual Skills and Attitudes-of-Mind: Reflections on a Course on College and University Curriculum. Teaching Education 1 (February, 1987), pp. 58.

³ Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет. – М., 1975. -502 с.

⁴ Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan.dok.diss. – Toshkent.: TDPU, 2012.- B.38.

ijodkorlikning o'ziga hosligi yangilik elementlarini texnologiyaga o'tkazish, uning samaradorligini tubdan o'zgartirishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Tashkilotchilik ijodkorligi – rejalashtirish, nazorat, resurslarni taqsimlash va safarbar qilish, tashqi muhit bilan aloqa, pedagog va talabalar orasidagi bog'lanishning yangi usullarini yaratishni tashkil qilish va boshqarishdagi ijodkorlikdir. Bizning tadqiqotimizda pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining didaktik ijodkorlik va tashkilotchilik ijodkorligi turlariga tayanish mumkinligini ta'kidlab o'tish zarur.

Ijodkorlik jarayonida maqsaddan tashqari inson xususiyatlarining psixologik (ishonch hosil qilish, munosabat, baho berish, did, urf-odatlar), pedagogik (ta'lim berish va ta'lim olish, tarbiyalash va tarbiyalanganlik) jihatlarini ham hisobga olish kerak.

Kreativlik tushunchasini pedagogik jihatdan tahlil etib, kreativlik ni yuzaga chiqarish va rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda "pedagog kadrlarning kpeativligini faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli askpektlarda ko'rib chiqish lozimligini"⁵. A.Aripdjanova o'z tadqiqotlarida aniqlagan.

G.Ibragimova "Kreativlik – yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui"⁶ sifatida namoyon bo'ladi degan g'oyani ilgari suradi va Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiya kabi sifatlarni qamrab olishini ta'kidlaydi.

Ushbu sifatlar esa shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bo'lib, kreativlik bevosita shaxsning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bilan ham bog'liq ekanini ko'rish mumkin. Sh.Pozilova esa tadqiqot ishida

"Kreativlik deganda shaxsning nostandart fikrlashi natijasida yangi, original g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati"⁷ degan xulosani beradi. Uning qarashlari fikrimizcha, tadqiqotchi G.Ibragimovanning Kreativlikka bergan ta'rifining davomi sifatida ifodalanmoqda.

Kreativlikka psixologik nuqtai nazardan "insonning ijodiy imkoniyatlarni namoyon bo'lishi (fikrlash, xis-tuyg'ular, muloqot, shaxsiy faoliyat) sifatida qaraladi va umumiy holda uning alohida jihatlarini, faoliyat mahsulotlarini, ularni yaratish jarayonini tavsiflaydi"⁸ deya ta'rif beriladi.

Kreativlik atamasini o'rganish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu izlanishlar nazariy-amaliy jihatdan ma'lum

natijalarga olib kelgan bo'lsa-da, kreativlikning yagona va izchil nazariyasi hali ham mavjud emas, ya'ni ko'p tadqiqotchi-olimlar tomonidan turli xil ta'riflar va qarashlar mavjud.

Bo'lajak kadrlarda tafakkurning dialektik, sinergetik, idealistik, pragmatik, analitik, realistik kabi uslublarini shakllantirish bugungi ta'limning dolzarb masalasiga aylanmog'i zarur. Chunki mafkuralashtirilgan va materialistik tafakkurning qanday ekanligini va ijtimoiy foydasini xalqimiz ko'rdi va undan yetarlicha saboq oldi. Yaqin o'tmishda mafkuralashtirilgan

⁵ Aripdjanova A. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – T.: 2017. –B. 10-11

⁶ Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – T.: 2017. – B. 54-55.

⁷ Pozilova Sh.X. Oliy ta'lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – T.: 2019. – B. 22-23

⁸ Большой психологический словарь. – М.: Прайл-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г.Мещерякова, акад.В.П.Зинченко. 2003. – 92 с.

ma'rifiy aqidalar ta'sirida bo'lsa-da, mamlakatda savodsizlik tugatildi, turli geografik mintaqalarda ko'plab madaniy, ma'rifiy ilmiy markazlar tarkib topdi. Qatag'on davri ziyolilari xalqni ma'rifatli qilishga o'zlarining munosib hissasini qo'shdi. Oliy ta'lim nafaqat yuksak malakali kadrlar tayyorlash, balki talaba-yoshlarni yangiliklarni bilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yangi dunyoviy bilimlar va intellektual qadriyatlarni yaratish ruhida tarbiyalash, turli ilmiy maktablar yaratgan an'analarni rivojlantirishga intiluvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga ham yo'naltirildi. Biroq, shunisi borki, intellektual salohiyat sohiblari uzoq yillar hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilgan, ko'pchiligi kommunistik tuzum g'oyalarini so'zda ma'qullasa ham, ich-ichidan ularni qabul qilmagan, kommunistik tuzum esa inson, millat va xalq erkinligiga, milliy tafakkur rivojlanishiga to'sqinlik qilib kelgan⁹. Shunday ekan, qanday bo'lmasin, bo'lajak kadrlarda intellektual kompetentlik muntazam rivojlanishi joiz va, tabiiyki, bu taraqqiyotning qonuniy sharti hisoblanadi.

References:

1. Roback A. A. Intelligence and Intellect. The Journal of Philosophy, Vol. 19, No. 12 (Jun. 8, 1922), pp. 325-330.
2. Conrad, Clifton F. Teaching Intellectual Skills and Attitudes-of-Mind: Reflections on a Course on College and University Curriculum. Teaching Education 1 (February, 1987), pp. 58.
3. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет. – М., 1975. -502 с.
4. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan.dok.diss. – Toshkent.: TDPU, 2012.- B.38.
5. Aripdjanova A. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. avtoref. – T.: 2017. –B. 10-11
6. Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – T.: 2017. – B. 54-55.
7. Pozilova Sh.X. Oliy ta'lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – T.: 2019. – B. 22-23
8. Большой психологический словарь. – М.: Прайл-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г.Мещерякова, акад.В.П.Зинченко. 2003. – 92 с.
9. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. -Toshkent, O'zbekiston, 2009. –B.10.

⁹ Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. -Toshkent, O'zbekiston, 2009. –B.10.